

**SHAXS VA UNING TOLERANTLIK TUSHUNCHASI**

*Abdumamatova Shodiya Zokirjon qizi - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim Pedagogika va psixologiya yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola shaxs va uning tolerantlik tushunchasini o'rganishga bag'ishlangan. Tolerantlik, insonlarning o'zaro munosabatlarida muhim rol o'ynab, boshqalar bilan fikr almashish, murosaga erishish va tinchlikni saqlashda asosiy omil sifatida ko'riladi. Maqolada tolerantlikning ahamiyati, uning shaxsiyatini rivojlantirish va jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi o'rnini ta'kidlanadi. Tolerantlikning yo'qligi itimoiy nizolar va diskriminatsiyaga olib kelishi mumkinligi haqida fikrlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: tolerantlik, insonlararo munosabatlar, murosa, tinchlik, shaxsiy rivolanish, ijtimoiy barqarorlik, o'zaro hurmat, jamiyat.

Tolerantlik (lot. tolerantia — sabr-toqat), bag'rikenglik — o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish. Hozirgi dunyoda tolerantlik o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, integratsiya va o'zaro bog'lqlik, keng miqyosli migratsiya va aholining ko'chib yurishi va boshqa jamiyatda tolerantlik tamoyilining ahamiyatini kuchaytiradi.

Bag'rikenglik tamoyili aqidabozlikdan, haqiqatni murakkablashtirishdan voz kechishni anglatadi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarni tasdiqlaydi. Bu tamoyilga ko'ra, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim. Bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas. Tolerantlikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.



Psixologik ma'noda tolerantlik bu- individning o'z asab va ruhiy muvozanatini tiklash, muvoffaqiyatli moslashtirish, adovatga yo'l qo'ymaslik va uni o'rab turgan olam bilan ijobiy munosabatlarni rivolantirish maqsadida muammoli va inqirozli vaziyatlarda tashqi muhit bilan faol aloqa qilish qobiliyatini belgilovchi birlashma, integral xususiyat sifatida ma'no mazmun kashf etadi.

Zamonaviy davrda insonlarning o'zaro munosabatlari ko'proq murakkablashmoqda. Har bir shaxs o'z hayotida yagona va takrorlanmasdir, ammo shuning barobarida turli fikr, g'oya va qarashlarga nisbatan ochiqlik ham muhimdir. Bu ochiqlik va qabul qilish qobiliyati tolerantlik deb ataladi. Tolerantlik, istisnosiz, har bir shaxsning shaxsiyati va ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallaydi. Tolerantlik tushunchasi, asosan, boshqalar bilan o'zaro munosabatlarda muhim rol o'ynaydi. Boshqa odamlarning fikriga nisbatan ochiqlik va hurmat, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlab qolish uchun zamin yaratadi. Biror inson o'zining fikrlarida qat'iy bo'lsa-da, boshqalar bilan muhokama qilishga tayyor bo'lishi, kelishmovchiliklar vaqtida ham murosaga erishish imkoniyatini beradi. Tolerantlikning asosiy mezonlaridan biri, har kimning o'z fikrini ifoda etish huquqiga ega ekanligini anglashdir. Insonlar orasida turlicha fikrlar, kelishuvlar, din va madaniyatlar mavjud bo'lib, ular bilan birga yashash va birlikda rivojlanish uchun tolerantlik zarur. Bu, ayniqsa, globalizatsiya jarayonida o'zining ahamiyatini yanada oshirmoqda, chunki turli madaniyatlar o'rtasida muloqot va hamkorlik sodir bo'lmoqda. Biroq, tolerantlikning yo'qligi hukumatlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida nizolarni, urushlarni va inson huquqlarini poymol qilishni keltirib chiqarishi mumkin.

Intolerantlik va diskriminatsiya, shaxslarning qabul qilinishi va hurmat qilinishi kerak bo'lganidan qat'i nazar, hatto eng oddiy ijtimoiy munosabatlarda ham kelib chiqishi mumkin. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy kamchiliklar va taraqqiyotning oldini oladi. Shuning uchun, shaxsning tolerantligi nafaqat individual qobiliyat, balki jamiyatning rivojlanishi uchun ham zaruriy shartdir. Odamlar o'rtasida yaxshiroq munosabatlar o'rnatish, o'zaro hurmat va muloqot asosida kompleks muammolarga yechim topish uchun yondashuvlar ishlab chiqilishi lozim.



Shaxsning tolerantlik tushunchasi nafaqat shaxsiy sifat, balki jamiyat barqarorligi va rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Shaxslar o'rtasidagi diversitetni qabul qilish, o'zaro hurmat, va o'zaro munosabatlar orqali ijtimoiy birlikni yaratish, har birimizning burchimizdir. Tolerantlik va uning ahamiyatini anglab, kelajak avlodlariga tinch va ahil jamiyatni qoldirish uchun harakat qilishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N. Ismoilova, D. Abdullayeva "Ijtimoiy psixologiya", Toshkent, 2013
2. Akramova, D. (2022). Bo'lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta'lim tizimidagi faoliyati. *Science and innovation*, 1(B8), 322-326.
3. Akramova, D. (2022). Oliy ta'lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. *Science and innovation*, 1(B8), 2150-2153.
4. Акрамова, Д. Э. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГИБКОСТИ У СТУДЕНТОВ КАК ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОСТИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(8), 19-23.
5. Akramova, D. E. qizi Suvonqulova, MD (2023, January). RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH VA MILLIY QADRIYATLAR NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 393-396).
6. Akramova, D. E. qizi Azimova, XD (2023, January). MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 382-385).
7. Ergashevna, A. D. (2023). TARBIYALANUVCHILARDA MOSLASHUVCHANLIK MECHANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. *Journal of new century innovations*, 23(2), 169-173.
8. Акрамова, Д. Э., & Йўлдошева, Н. (2023). ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ МАЖМУИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 362-364).



9. Акрамова, Д. Э., & Бобомуродова, О. Б. (2023). ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 352-354).
10. Akramova, D. (2022). ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS-PSYCHOLOGISTS IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION. *Science and Innovation*, 1(8), 322-326.
11. Акрамова, Д. Э. қизи Давронова, ЖС (2023, January). ТАРБИЯ ТИЗИМИ ВА УНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 358-361).
12. Акрамова, Д. Э. қизи Бозорбоева, ДА (2023, January). ЖАМОА–ТАРБИЯ ОБЪЕКТИ ВА СУБЪЕКТИ СИФАТИДА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 355-357).
13. Ergashevna, A. D. (2025). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIALIZATION IN SCHOOLCHILDREN OF THE PREPARATORY GROUP. *SHOKH LIBRARY*.
14. Ibraimov, X., & Akramova, D. (2023). DIDACTIC CHARACTERISTICS OF COMMUNICATIVE TRAINING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *Science and innovation*, 2(B11), 357-361.